

Davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari

**Mutallibov Muhammadqodir
Nusratbek o'g'li**

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat moliyaviy nazoratining mamlakat moliya tizimidagi o'rni va joriy holati tahlil qilingan. Unda davlat moliyaviy nazoratining tashqi va ichki shakllari, uni amalga oshiruvchi asosiy subyektlar, ularning vakolatlari hamda budjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjet mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, riskka asoslangan nazoratni rivojlantirish, ichki audit faoliyatini kuchaytirish, profilaktik nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu yo'nalishlarning amaliyotga joriy etilishi davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi, shaffofligi va natijadorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat, budjet mablag'lari, tashqi nazorat, ichki nazorat, ichki audit, riskka asoslangan nazorat, profilaktik nazorat, davlat xaridlari, moliyaviy intizom, raqamlashtirish, budjet samaradorligi.

Kirish

Davlat moliyasini samarali boshqarish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash va mavjud moliyaviy imkoniyatlardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, budjet daromadlari hisobidan shakllantiriladigan mablag'larning belgilangan maqsadlarga yo'naltirilishi, ularning sarflanish natijadorligini ta'minlash va moliyaviy intizomga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur jarayonlarda davlat moliyaviy nazorati davlat resurslarining harakatini kuzatish bilan bir qatorda, moliyaviy mablag'lardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois nazorat tizimining mavjud iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish zarurati ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi moliyaviy boshqaruv jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlat tashkilotlarida elektron ma’lumotlar bazalarining kengayishi, moliyaviy operatsiyalarning axborot tizimlari orqali amalga oshirilishi va katta hajmdagi ma’lumotlarning shakllanishi nazorat faoliyatini tashkil etishning yangi usullarini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nazoratni faqat amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi va to‘g‘riligini tekshirish bilan cheklab qolmasdan, moliyaviy xavflarni oldindan baholash, ehtimoliy muammolarni prognoz qilish va ularning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltirish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, raqamli tahlil vositalari, avtomatlashtirilgan monitoring hamda risklarni baholashga asoslangan nazorat usullaridan foydalanish davlat moliyaviy nazoratining yangi rivojlanish bosqichini shakllantirmoqda.

O‘zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda. Budget mablag‘larining shakllanishi va sarflanishida ochiqlikni kuchaytirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash, davlat xarajatlarining natijadorligini oshirish hamda moliyaviy nazorat subyektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq iqtisodiy munosabatlarning murakkablashib borishi, budget mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalar ko‘laminig kengayishi va boshqaruv jarayonlarining raqamli shaklga o‘tishi nazorat tizimi oldiga yanada yuqori talablarni qo‘ymoqda. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining amaldagi shakllarini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Nazorat tizimini modernizatsiya qilish jarayonida uning funksiyalarini qayta tashkil etish bilan bir qatorda, nazorat tadbirlarining samaradorligini belgilovchi mexanizmlarni takomillashtirish ham muhimdir. Xususan, moliyaviy xavflarni darajasiga qarab nazorat obyektlarini saralash, ichki auditning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, elektron monitoringni rivojlantirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga, ularning takrorlanishiga sabab bo‘layotgan omillarni o‘rganish zarur. Bunday yondashuv davlat moliyaviy nazoratini faqat kamchiliklarni aniqlovchi tizimdan ularning oldini olish va moliyaviy boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmga aylantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi jihatlar davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilish masalasini ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganishni talab etadi. Xususan, nazoratning amaldagi mexanizmlarini baholash, ularning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, raqamli texnologiyalar va riskka yo‘naltirilgan yondashuvning imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ilg‘or amaliyot asosida takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Shu asosda davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish va modernizatsiya qilish masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan davlat moliyasini boshqarish, budget

jarayonining samaradorligi, ichki nazorat va moliyaviy boshqaruv tizimlarini isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

A.Schick davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlar bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotida zamonaviy davlat moliyaviy boshqaruvi faqat budjet mablag'larini nazorat qilish bilan cheklanib qolmasligi, balki fiskal intizom, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv natijadorligini ta'minlashga yo'naltirilishi lozimligini ta'kidlaydi [1].

J. Diamond davlat xarajatlarini boshqarish va budjet tizimini isloh qilish masalalariga e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida davlat tashkilotlaridagi ichki moliyaviy boshqaruv tizimlarini mustahkamlash, ichki auditorlik faoliyatini rivojlantirish hamda budjet tizimining samaradorligini oshirish masalalari asosiy o'rin egallaydi [2]. Fikrimizcha, zamonaviy budjet tizimi samarali ichki moliyaviy boshqaruv va nazorat mexanizmlariga tayanishi kerak.

M. Cangiano davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy arxitekturasini va uni isloh qilish masalalarini tadqiq qilgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida davlat moliyasini boshqarish tizimida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar, fiskal boshqaruvni takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari yoritilgan [3]. Mazkur yondashuvlar davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishda nazoratni boshqa moliyaviy boshqaruv mexanizmlari bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

B. Potter davlat xarajatlarini boshqarish va budjet ijrosi masalalarini tadqiq etgan. B.Potter va J. Diamond tomonidan olib borilgan tadqiqotda budjetni shakllantirish, uning ijrosi, pul mablag'larini boshqarish hamda moliyaviy hisobot yuritish jarayonlari tizimli ravishda ko'rib chiqilgan [4]. Ushbu yondashuv davlat moliyaviy nazoratini faqat tekshiruv jarayoni sifatida emas, balki budjetni rejalashtirish va ijro etishning barcha bosqichlari bilan uzviy bog'liq mexanizm sifatida qarash imkonini beradi.

B. Turabov O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish masalalarini tadqiq etib, nazorat tizimini xalqaro standartlar va zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida rivojlantirish zarurligiga e'tibor qaratgan. Muallif davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, davlat tashkilotlarida ichki audit mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [5].

A. Jabbarov o'z tadqiqotida O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining tashkiliy va funksional jihatdan rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilgan. Muallif nazorat faoliyatining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi, audit funksiyalarining nazorat jarayonlariga samarali integratsiyalashuvi hamda moliyaviy resurslardan foydalanish ustidan nazoratning natijadorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi [6].

V. Nuritdinova davlat moliyaviy nazoratining amaliy jihatlarini o'rganib, budjet tashkilotlarida moliyaviy resurslardan samarali va oqilona foydalanish masalalariga e'tibor qaratgan. Muallif budjet xarajatlarini to'g'ri rejalashtirish, moliyaviy intizomga rioya etish va mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan samarali nazorat o'rnatish davlat moliyasini boshqarish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [7]. Shu nuqtayi nazardan, uning tadqiqotlari davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishda

xarajatlar ustidan monitoringni kuchaytirish va mavjud nazorat mexanizmlarining natijadorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratining amaldagi holati, tashqi va ichki shakllari, asosiy subyektlari hamda uni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini o'rganishda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida davlat moliyaviy nazorati yagona moliyaviy boshqaruv tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi, tahlil va sintez usullari orqali esa uning asosiy shakllari, vazifalari va nazorat yo'nalishlari o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

Tahlil va natijalar

Davlat moliyaviy nazorati mamlakat moliya tizimining barqaror faoliyat yurishini ta'minlash, budget mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanishni nazorat qilish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashning muhim vositalaridan biridir. Hozirgi sharoitda davlat moliyaviy nazoratining mazmuni yanada kengayib, u nafaqat moliyaviy mablag'larning qonuniy sarflanishini tekshirish, balki ulardan foydalanishning samaradorligi, natijadorligi va maqsadga muvofiqligini baholashga ham qaratilmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratining samarali tashkil etilishi uning turli shakl va yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlashni talab etadi. Tashqi va ichki nazorat bir-birini to'ldirgan holda budget mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur nazorat shakllari va ularning asosiy vazifalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy shakllari va yo'nalishlari

Nazorat shakli / yo'nalishi	Qisqacha tavsifi	Asosiy vazifalari	Nazorat obyekti
Tashqi moliyaviy nazorat	Tashkilot yoki mablag'larni boshqaruvchi organdan mustaqil bo'lgan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi	Davlat mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni xolisona baholash	Davlat budjeti, davlat dasturlari, davlat aktivlari, budget xarajatlari va moliyaviy hisobotlar
Ichki moliyaviy nazorat	Tashkilot yoki budget muassasasining o'zida moliyaviy jarayonlarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi	Moliyaviy xatolar va qonunbuzilishlarning oldini olish, xavflarni aniqlash va kamaytirish	Tashkilotning moliyaviy operatsiyalari, xarajatlari, ichki jarayonlari va moliyaviy hujjatlari
Budget mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat	Budgetdan ajratilgan mablag'larning belgilangan maqsad va qonunchilik talablariga muvofiq sarflanishini nazorat qilishga qaratiladi	Mablag'larning qonuniy, maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash	Davlat xaridlari, ish haqi to'lovlari, kapital qo'yilmalar, subsidiyalar, davlat dasturlari va boshqa budget xarajatlari

Ichki audit va risklarni boshqarish	Moliyaviy faoliyatdagi mavjud va ehtimoliy xavflarni aniqlash hamda ularni boshqarishga qaratilgan zamonaviy nazorat mexanizmi	Moliyaviy xavflarni kamaytirish, xatolarni oldindan aniqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish	Moliyaviy jarayonlar, boshqaruv qarorlari, risklar va ichki nazorat tizimi
-------------------------------------	--	--	--

Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirishda uning tashqi va ichki nazorat shakllariga ajratilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki shakl bir-birini to'ldirib, davlat mablag'laridan foydalanish ustidan kompleks nazoratni ta'minlaydi. Tashqi nazorat asosan mustaqil vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilsa, ichki nazorat tashkilotning o'zida moliyaviy jarayonlarni muntazam kuzatib borish va mavjud xatarlarning oldini olishga qaratiladi.

Tashqi moliyaviy nazorat qilinayotgan tashkilot yoki mablag'larni boshqaruvchi organdan mustaqil bo'lgan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi davlat moliyaviy resurslarining qonuniy, maqsadli va samarali shakllantirilishi hamda sarflanishini xolisona baholashdan iborat. Nazorat jarayonida budget mablag'laridan foydalanish, davlat dasturlarining moliyaviy ta'minoti, davlat aktivlari va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi o'rganiladi. Bu esa davlat mablag'laridan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki moliyaviy nazorat esa bevosita tashkilot yoki budget muassasasining o'zida amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy xatolar, kamchiliklar va qonunbuzilishlarning oldini olish, shuningdek, mablag'lardan foydalanish bilan bog'liq xavflarni aniqlash va kamaytirishdan iborat. Ichki nazoratning samarali tashkil etilishi moliyaviy intizomni mustahkamlash, budget mablag'laridan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

Budget mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat davlat moliyaviy nazoratining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunda ajratilgan mablag'larning belgilangan maqsadlarga muvofiq sarflanishi, xarajatlarning qonuniyligi, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va mablag'lardan foydalanish samaradorligi baholanadi. Ayniqsa, davlat xaridlari, ish haqi to'lovlari, kapital qo'yilmalar, subsidiyalar va davlat dasturlariga ajratilgan mablag'lar nazoratning muhim obyektlari hisoblanadi.

Umuman olganda, tashqi va ichki moliyaviy nazoratning o'zaro uyg'unligi davlat mablag'laridan qonuniy, maqsadli, samarali va shaffof foydalanishni ta'minlashning muhim shartidir. Zamonaviy sharoitda esa ichki audit, risklarni boshqarish va profilaktik nazorat mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi, avvalo, ularni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlarning faoliyatiga bevosita bog'liq. Shu jihatdan O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati o'z vakolatlari va funksiyalariga ega bo'lgan bir qator davlat organlari hamda tashkilotlarning ichki nazorat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organlarning asosiy vazifalari va nazorat yo'nalishlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval


O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi asosiy organlar va ularning vakolatlari

Davlat moliyaviy nazorati subyekti	Asosiy vazifasi	Nazorat yo'nalishlari
Hisob palatasi	Davlat moliyaviy nazoratining muhim tashqi bo'g'ini sifatida davlat mablag'larining shakllantirilishi va sarflanishini nazorat qilish	Davlat budjeti ijrosi, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlat dasturlarining moliyaviy ta'minoti, davlat aktivlaridan foydalanish
Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Davlat moliyasini boshqarish va budjet mablag'laridan qonuniy hamda maqsadli foydalanishni ta'minlash	Budjet mablag'larining sarflanishi, moliyaviy intizom, budjet jarayonining qonuniyligi va belgilangan talablarga muvofiqligi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi moliyaviy nazorat organlari	Budjet tashkilotlarida moliyaviy intizomga rioya etilishini va mablag'lardan to'g'ri foydalanilishini nazorat qilish	Xarajatlarning qonuniyligi, budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi, moliyaviy hujjatlar va hisobotlarning to'g'riligi
Budjet tashkilotlarining ichki nazorat va ichki audit bo'linmalari	Tashkilot ichidagi moliyaviy jarayonlarni nazorat qilish, xatolar va moliyaviy xavflarning oldini olish	Ichki moliyaviy nazorat, mablag'lardan samarali foydalanish, moliyaviy intizom, xatolik va qonunbuzilishlarni aniqlash hamda oldini olish

Mazkur tizimda Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tizimidagi moliyaviy nazorat organlari, shuningdek, budjet tashkilotlarining ichki nazorat va ichki audit bo'linmalari muhim o'rin egallaydi. Xususan, Hisob palatasi davlat moliyaviy nazoratining muhim tashqi bo'g'ini hisoblanib, davlat budjeti va davlat mablag'larining shakllantirilishi hamda ulardan foydalanish jarayonlarini nazorat qiladi. Uning faoliyatida budjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlat dasturlarining moliyaviy ta'minoti hamda davlat aktivlaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu bilan birga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tizimidagi moliyaviy nazorat organlari budjet mablag'larining qonuniy va maqsadli sarflanishini, budjet tashkilotlarida moliyaviy intizomga rioya etilishini hamda budjet jarayonining belgilangan talablar asosida amalga oshirilishini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Budjet tashkilotlaridagi ichki nazorat va ichki audit bo'linmalari esa moliyaviy jarayonlarni tashkilotning o'zida nazorat qilish, mavjud xatarlarni aniqlash va moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, davlat moliyaviy nazorati tizimida faoliyat yurituvchi subyektlar o'zaro bog'liq holda davlat mablag'larining qonuniy, maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqsadga erishishda amalga oshiriladigan nazorat tadbirlarining mazmuni va yo'nalishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati faqatgina moliyaviy qonunbuzilishlarni aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki ularning oldini olish, budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash va moliyaviy intizomni mustahkamlashga ham qaratilmoqda. Shu munosabat bilan nazorat tadbirlari bir qator ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi.



1-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining asosiy yo'nalishlari

Rasmda keltirilgan yo'nalishlarning kompleks ravishda amalga oshirilishi davlat mablag'laridan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta'minlash, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda budjet xarajatlarining qonuniyligi, maqsadliligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq zamonaviy iqtisodiy sharoitda ushbu natijalarga erishish uchun davlat moliyaviy nazoratini mavjud an'anaviy yondashuvlar asosida olib borishning o'zi yetarli emas.

Nazorat tizimini yanada takomillashtirish davlat mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va nazorat jarayonlarining shaffofligini oshirishni talab etadi. Shu sababli davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalar, risklarni boshqarish, ichki audit, profilaktik nazorat va natijadorlikni baholashga asoslangan zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar asosida davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishini ajratish mumkin:

3-jadval

Davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari

№	Ustuvor yo'nalish	Qisqacha mazmuni
1	Raqamlashtirish	Moliyaviy nazorat jarayonlarini elektron shaklga o'tkazish, axborot tizimlarini integratsiya qilish va nazoratni avtomatlashtirish orqali tezkorlik va aniqlikni oshirish.
2	Riskka asoslangan nazorat	Moliyaviy xavfi yuqori bo'lgan tashkilot va operatsiyalarni oldindan aniqlash hamda nazorat resurslarini ustuvor xavf mavjud bo'lgan sohalarga yo'naltirish.
3	Ichki auditni kuchaytirish	Budjet tashkilotlarida ichki auditning samaradorligini oshirish, moliyaviy xatolar va qonunbuzilishlarni tashqi tekshiruvdan oldin aniqlash hamda bartaraf etish.

4	Profilaktik nazoratni rivojlantirish	Qonunbuzilish sodir bo'lgandan keyin aniqlashdan ko'ra, moliyaviy xatolar, suiiste'molliklar va boshqa xavflarning oldini olishga e'tiborni kuchaytirish.
5	Budjet mablag'larining samaradorligini baholash	Faqat mablag'larning qonuniy va maqsadli sarflanishini emas, balki ajratilgan mablag'lar hisobiga erishilgan natija va ijtimoiy-iqtisodiy samarani ham baholash.

Mazkur jadvalda davlat moliyaviy nazoratini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar aks ettirilgan. Ushbu yo'nalishlar nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ichki audit faoliyatini kuchaytirish hamda moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olishga qaratilgan. Ayniqsa, riskka asoslangan va profilaktik nazorat mexanizmlarining rivojlantirilishi nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash orqali davlat xarajatlarning faqat qonuniyligi va maqsadliligi emas, balki ularning natijadorligi ham aniqlanadi. Shu jihatdan mazkur yo'nalishlarning kompleks ravishda joriy etilishi davlat moliyaviy nazoratining shaffofligi va samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda budjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Davlat moliyaviy nazorati mamlakat moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, budjet mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ushbu nazorat tizimi tashqi va ichki nazorat shakllarining o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshirilib, unda Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tizimidagi nazorat organlari, shuningdek, budjet tashkilotlarining ichki audit va nazorat bo'linmalari muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy davlat moliyaviy nazorati faqat moliyaviy qonunbuzilishlarni aniqlash bilan cheklanmasdan, ularning oldini olish, moliyaviy xavflarni boshqarish va budjet mablag'laridan foydalanish natijadorligini baholashga ham yo'naltirilmoqda. Shu jihatdan davlat xaridlari, budjet xarajatlari, davlat dasturlari, subsidiyalar va davlat aktivlaridan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish uchun raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat, ichki auditni kuchaytirish, profilaktik nazoratni rivojlantirish hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlarning kompleks ravishda joriy etilishi nazorat jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va shaffofligini oshirish bilan birga, moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olish imkonini ham kengaytiradi.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadi nazoratni jazolovchi mexanizmdan oldini oluvchi, risklarni boshqarishga va natijadorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan zamonaviy tizimga aylantirishdan iborat. Bunday yondashuv davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, budjet xarajatlarning

samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schick A. Reflections on Two Decades of Public Financial Management Reforms // Public Financial Management and Its Emerging Architecture. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2013. — P. 1–19.
2. Diamond J. The Micro Basis of Budget System Reform: The Case of Transitional Economies // IMF Working Papers. — 2002. — No. 105. — 32 p. — DOI: 10.5089/9781451852837.001.
3. Cangiano M., Curristine T.R., Lazare M. Public Financial Management and Its Emerging Architecture. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2013. — 468 p. — DOI: 10.5089/9781475531091.071.
4. Potter B.H., Diamond J. Guidelines for Public Expenditure Management. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 1999. — 77 p.
5. Turabov B.T. State financial control in Uzbekistan and directions for its improvement // Journal of International Finance and Accounting. — 2022. — № 4. — DOI: 10.34920/2181-1016/2022/4-009.
6. Jabbarov A.A. Improvement of State Financial Control System // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. — 2023. — Vol. 10, № 4. — P. 100–108. — DOI: 10.18415/ijmmu.v10i4.4620.
7. Nuritdinova V.Sh. State financial control system more improvement issues // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. — 2023. — Vol. 10. — P. 14–21.